



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Anvar Samyayev¹

Munisa Ikromova²

Xaydarali Mamatov³

^{1,2}Samarqand viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchilari

³Kattaqo'rg'on tuman 42-maktab o'qituvchisi

GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHISINING KASBIY STANDARTLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING O'RNI

Annotasiya: Ushbu maqolada xalq ta'limidagi islohatlar, o'qituvchining kasbiy standartlari, geografiya fani o'qituvchisining kasbiy standartlarida amaliy mashg'ulotlarning o'rni to'g'risida ma'lumotlar berilgan hamda misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Islohatlar, kasbiy standartlar, noa'nnaviy ta'lim, kognitiv o'qitish, mantiqiy fikrlash, okean suvining sho'rлиgi, suvda haroratni o'lchash, exolot .

Ta'lim-tarbiya sohasini modernizasiyalash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahorati hamda ularning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, elektron manbalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar va internet

ma'lumotlaridan foydalanilgan holda dars o'tish bugungi kunning talabi bo'lib qolmoqda. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchilarning kasbiy standartlariga bo'lgan talab oshmoqda

Bugungi kunning asosiy talabi o'quvchilarni kognitiv o'qitish orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. O'quvchilarda tabiiy fanlar kesimida mantiqiy fikrlash laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarsiz shakllanmaydi. Geografiya darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni katta. Buning uchun eng avvalo o'qituvchining o'zi o'z kasbini chuqr bilishi, o'z ustida tinmay ishlashi, dars davomida AKT vositalaridan unumli foydalanishi, fanga oid amaliy mashg'ulotlarni yaxshi bilishi zarur. Quyida geografiya fanidan "Okean suvlarining xususiyatlari mavzusida mashq va masalalar yechish" mavzusi bilan bog'lab amaliy mashg'ulotlardan namunalar berdik.

Okean suvlarining xususiyatlari mavzusida mashq va masalalar yechish

OKEAN SUVINING SHO'RЛИGI

Okean suvlarining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning sho'rligidir. Dunyo okeani suvining o'rtacha sho'rligi har bir litrida 35 gr. yoki 35 % (promille). Okean suvlarida sho'rlikning past yoki yuqori bo'lishi asosan ikki omilga bog'liq bo'lib, bular : buglanuvchanlik va yog'in miqdori . Agar bug'lanuvchanlik yog'in miqdoridan ko'p bo'lsa, sho'rlik oshadi, agar yogin miqdori bug'lanuvchanlikdan ko'p bo'lsa, sho'rlik pasayadi.

1- Masala .Okean suvining 1 tonnasidan qancha tuz olish mumkin?

Yechimi: Ma'lumki okean suvining o'rtacha sho'rligi 35% ya'ni 1 litr suvda 35 gramm tuz bo'lsa, 1000 gramm suvda 35 gramm tuz bo'lsa, 1000 litr okean suvida 35000 gramm yoki 35 kg tuz bo'ladi.

$$\text{ya'ni } 1\text{litr} = 35 \text{ gramm}$$

$$1000\text{litr} = X$$

$$X = 1000 \cdot 35 = 35000 \text{ gramm yoki } 35 \text{ kg tuz hosil bo'ladi.}$$

OKEAN SUVLARINING HARORATINI O'LCHASH

Mutaxassislar okean suvlaridagi harorat 300 – 350 metr chuqurlikkacha o'zgarmay turishini aniqlashgan . Shundan so'ng okean suvlari har 1000 metr

(1km) da o'rtacha 2°C ga pasaya boradi .

1 – Masala : Arabiston dengizi suvining yuzasida harorat $+ 21^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, dengizning 5700 metr chuqur qismidagi suvning haroratini aniqlang.

Yechimi: Okean suvlaridagi harorat 300 – 350 metr chuqurlikkacha o'zgarmay turishini bilamiz .

$$5700 \text{ metr} - 350 \text{ metr} = 5350 \text{ metr}$$

Okean suvining harorati har 1000 metr chuqurlikka tushganda 2°C ga pasayishini bilgan holda proporsiya tuzamiz va masalani yechamiz :

$$5350 \text{ metr} : 2 : 1000 \text{ metr} = 10.7^{\circ}$$

$$+21^{\circ} - 10.7^{\circ} = +10.3^{\circ}$$

Javob : Arabiston dengizi suvining yuzasida harorat $+21^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lganda, dengizning 5700 metr chuqur qismida suvning harorati $+10.3^{\circ}$ ga teng bo'ladi .

Eslatma: Maktab darsliklaridagi topshiriqlarda suvlardagi harorat 300 – 350 metr chuqurlikkacha o'zgarmay turishi hisobga olinmaydi

OKEAN TUBIDAGI TOVUSHNI O'LCHASH

Exolot – okean, dengiz chuqurligini o`lchaydigan asbob. Kema korpusining pastki qismida o'rnatilgan maxsus asbob suv ostiga tovush signali yuboradi. Tovush suv tagiga yetadi va undan aks sado qaytib keladi. Bu aks sado exolot yordamida ushlab olinadi. To'lqin borib qaytgunga qadar ketgan vaqtga qarab chuqurlik aniqlanadi. Eslab qoling : tovushning suv ostida tarqalish tezligi sekundiga 1500 m. ga teng.

1- Masala. Exolot asbobidan foydalanib okean tagiga yuborilgan signal 4 sekunddan keyin kemaga qaytib kelsa, okean tubi chuqurligi necha metrga teng bo'ladi?

Yechimi: tovushning suvdagi tarqalish tezligi 1500 m/ sek ga teng. Demak, tovush 4 sekundda $1500 * 4 = 6000$ m masofani bosib o'tadi.

Tovush masofani ikki marta bosib o'tganligi uchun 6000 ni 2 ga bo'lamiz, $6000 : 2 = 3000$ m

Javob: Okean tubi chuqurligi 3000 m.